

3-4 SINF O'QUVCHILARINING O'QISH KO'NIKMALARINI INGLIZ TILIDA SHAKLLANTIRISHDA "GUESS WHAT!" DARSLIGINING IMKONIYATLARI

Kamalova Saida Maxamat Ibraximovna,
Nizomiy nomidagi O'zMPU tayanch doktoranti (PhD)
G-mail: kamalovasaida82@gmail.com
ORCID:0009-0000-5689-2851

Annotatsiya. Mazkur maqolada 3–4-sinf o'quvchilarining ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini shakllantirishda "Guess What!" darsligining metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda darslikdagi matnlar, topshiriqlar tizimi, vizual tayanchlar va kommunikativ faoliyatlar o'quvchilarning matnni anglash, asosiy axborotni ajratib olish, tinglab tushunish bilan bog'liq o'qish malakalarini rivojlantirishdagi o'rni jihatidan ko'rib chiqildi. Shuningdek, darslikning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda ayrim metodik cheklovlari ham aniqlanib, ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ilgari surildi. Natijalar "Guess What!" darsligining boshlang'ich sinflarda ingliz tilida o'qish kompetensiyasini shakllantirishda samarali o'quv manbasi ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'qish ko'nikmasi, ingliz tili, darslik, metodik tahlil, kommunikativ yondashuv.

Аннотация. В данной статье анализируются методические возможности учебника "Guess What!" в формировании навыков чтения на английском языке у учащихся 3–4 классов. В исследовании рассматриваются тексты, система заданий, визуальная опора и коммуникативные виды деятельности с точки зрения их роли в развитии понимания текста, выделения основной информации и навыков чтения, связанных с аудированием. Наряду с положительными сторонами учебника выявлены и некоторые методические ограничения, предложены пути их устранения. Результаты исследования показывают, что учебник "Guess What!" является эффективным учебным ресурсом для формирования навыков чтения в начальной школе.

Ключевые слова: начальное образование, навыки чтения, английский язык, учебник, методический анализ, коммуникативный подход.

Abstract. This article examines the methodological potential of the "Guess What!" textbook in developing reading skills in English among 3rd and 4th grade learners. The study analyzes the texts, task system, visual support, and communicative activities in terms of their contribution to reading comprehension, identification of key information, and reading skills connected with listening comprehension. Along with its strengths, the textbook's methodological limitations are also identified, and suggestions for improvement are proposed. The findings show that "Guess What!" is an effective learning resource for fostering reading competence in primary education.

Keywords: primary education, reading skills, English language, textbook, methodological analysis, communicative approach.

Kirish. Bugungi kunda bir nechta dunyo tillarini biladigan hamda turli madaniyatlarni chuqur anglay oladigan fuqarolarni shakllantirish har qanday millat taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Jahon mamlakatlarning global miqyosdagi rivojlanishi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlardan xabardor bo'lish bilan chambarchas bog'liqdir. Lingvistik va madaniy bilimlarga ega bo'lish, shuningdek, chet tillarini o'rganish XXI asrda global jamiyat hamda xalqaro savdo-iqtisodiy sohada faoliyat yurituvchi shaxslar uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda xalqlarni bir-biridan ajratib turuvchi geografik chegaralar avvalgidek katta to'siq hisoblanmaydi. Aksincha, davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar kuchayib, turli millat va madaniyatlarning

imkoniyatlaridan samarali foydalana oladigan hamda bir nechta tillarni biladigan fuqarolar uchun ta'lim va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari yanada kengayib bormoqda. Shu kabi tushunchalarni hisobga olgan holda yurtimizda uzluksiz ta'lim tizimida chet tilini o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim tizimida bosqichma-bosqich olib borilayotgan islohotlar zaminida har bir o'quvchining bugungi ko'p madaniyatli dunyoda raqobatlasha oladigan fuqaro sifatida tarbiyalashda chet tillarini bilish ko'nikmasi muhim ekanligi aks etadi. Demak bugunning dolzarb vazifalaridan biri bu umumiy o'rta ta'limda chet tillarini o'qitishni samarali yo'lga qo'yish hisoblanadi.

Ta'lim tizimidagi boshqa fanlardan farqli ravishda, chet tili bir vaqtning o'zida ham o'qitish maqsadi, ham ta'lim jarayonida qo'llaniladigan vosita sifatida namoyon bo'ladi. Chet tilini o'rganish jarayonida nutqiy ko'nikmalar — tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish malakalarini egallash asosiy maqsad hisoblanadi. Shu bilan birga, o'rganilayotgan til yangi va foydali ma'lumotlarni qabul qilish hamda ularni boshqalarga yetkazish vositasi vazifasini ham bajaradi. Natijada, o'quvchi nafaqat muloqot jarayonining ishtirokchisi, balki axborotni egallovchi va uni uzatuvchi shaxs sifatida ham o'rganilayotgan tildan foydalanadi.[1.4]

Chet tilini o'qitish mazmuni uch asosiy tarkibiy qismdan iborat bo'lgan ta'limiy jarayon sifatida qaraladi: nutq mavzulari, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar hamda til materiallaridan tashkil topadi. Har bir o'qituvchi pedagogik faoliyati davomida ushbu jihatlarni inobatga olishi va amaliyotda ularga tayanishi zarur.

Adabiyotlar tahlili. Maktab ta'limining barcha bosqichlarini qamrab oladigan o'quv materiallari va darsliklarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida darsliklarning muhim o'rni haqida bir qator olimlar, jumladan, V.V.Krayevskiy, M.V.Lyaxovitskiy, I.L.Bim, I.Ya.Lerner, V.V.Davidov, G.V.Rogova va G.Ya.Galperin o'z tadqiqotlarida alohida ta'kidlaganlar. Xususan, G.V.Rogova darslikni chet tillarini o'qitish va o'rganishdagi asosiy vosita sifatida baholaydi. I.L.Bim esa zamonaviy darslikni ta'lim tizimini kichik modeli deb hisoblab, unda ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlari o'z aksini topishini qayd etadi.[2.23] L.K.Iliyeva o'z tadqiqotida darslikni o'quvchi va talaba uchun dasturulamal vazifasini bajaruvchi muhim vosita deb baholaydi. Uning ta'kidlashicha, darslik o'quvchining kundalik faoliyatida o'qituvchi tomonidan belgilangan vazifalarni amalga oshirishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.[3.45] Haqiqatan ham, darslik o'quvchilarning bilimlarni egallashi va ularni mustahkam o'zlashtirishi, shuningdek, zarur ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi tizimli til materiallarini o'zida mujassam etgan muhim ta'lim vositasi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot sifatli (qualitative) yondashuvga asoslanib, tavsifiy va qiyosiy tahlil metodlari yordamida amalga oshirildi. Tadqiqotda "Guess What!" 3–4-sinf darsliklari va ish daftarlari asosiy manba sifatida o'rganildi. Tahlil jarayonida darslikdagi o'qish topshiriqlari pre-reading, while-reading va post-reading

bosqichlari bo'yicha ko'rib chiqildi. Shuningdek, 3 va 4-sinf materiallari o'zaro taqqoslandi. Tadqiqot kommunikativ va integrativ yondashuv asosida olib borildi.

Tahlillar va natijalar. 2022-2023 o'quv yilidan boshlab O'zbekistondagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tili fanini o'rgatishda "Guess What!" ingliz tili darsligi majmuasi qo'llanila boshladi. Mazkur darslik majmualari yuqori estetik jozibadorlikka ega bo'lib, bu holat o'quvchilarning ingliz tilini o'ragnishga bo'lgan motivatsiyasi va o'quv-bilish faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu darsliklarda izchillik tamoyiliga amal qilinganligi ularning muhim yutuqlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. "Guess What!"- bu boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan darslik bo'lib, unda bosqichma-bosqich til ko'nikmalarini (Listening, Speaking, Reading, Writing) shakllantirishga yo'naltirilgan interaktiv topshiriqlar berilgan. Darsliklar Susannah Reed, Kay Bentley, Lesley Koustaf mualliflari tomonidan yaratilgan bo'lib, darslik majmuasi Cambridge University Press tomonidan nashr qilingan. Darslik majmuasi tarkibiga Student's book (o'quvchi kitobi), Workbook (ish daftari), Teacher's book (o'qituvchi uchun qo'llanma), audio va multimediya resurslar kiradi. Darsliklar O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'lim Vazirligi (hozirgi vaqtda Maktab va Maktabgacha Ta'lim Vazirligi) va AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ta'lim modernizatsiya dasturi doirasida joriy etilgan. [4] Bu darsliklarning avvaldan mavjud bo'lgan xalqaro nashr kursi bo'lishiga qaramay, O'zbekiston ta'limi uchun maxsus tanlanib, o'quvchilarning yoshiga moslashtirib ta'lim tizimiga kiritilgan. "Guess What!" darslik majmuasining amaliy ahamiyatlarini sanab o'tadigan bo'lsak, unda multimodal yondashuv-rasm, audio, matn, interaktiv mashqlar uyg'unligi mavjud, shuningdek CEFR ning A1 daraja talablariga javob beradi hamda kommunikativ metodikani ya'ni til ko'nikmalarini real hayotiy kontekstda shakllanishini ta'minlaydi. Tanlangan mavzular ham boshlang'ich sinf yoshiga mos holda kundalik hayot, oila, maktab, o'yinlar va boshqa predmet mavzularini qamrab oladi. [5.37-45] Shu bilan birga O'zbekiston sharoitida 1-6 sinflar uchun "Guess What!", 7-11 sinflar uchun esa "Prepare" majmuasi bilan ta'lim jarayoni uzviy bog'lanadi

"Guess What!" darslik majmuasini 3-4-sinflar uchun mo'ljallangan darslik kitoblaridagi aynan o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdagi asosiy jihatlarini tahlil qilib ko'rdik. 3-sinf o'quvchi kitobi (Student's book) 8 ta bo'lim (Unit) dan iborat bo'lib, har biri real hayotiy mavzularga asoslangan. U vizual jihatdan jozibador fotosuratlar, videolar, animatsion hikoyalar va CLIL elementlari bilan boyitilgan. Mavzular o'quvchilarning tabiiy qiziqishlarini uyg'otishga qaratilgan, masalan, hayvonlar, maktab, oila va tabiat. Tahlil natijasida darslikda quyidagi topshiriq turlari aniqlandi: o'qish oldi (Pre-reading)-rasmlarni kuzatish, savollarga taxmin qilish, so'zlarni moslashtirish; o'qish jarayonida (While-reading)-matnni tinglab o'qish, to'g'ri/noto'g'ri (True/False), gapni to'ldirish, moslashtirish, belgilash (tick/circle); o'qishdan keyin (Post-reading)-savollarga javob, rolli o'yin, dialog tuzish, hikoyani davom ettirish va boshqalar. Bundan

tashqari darslikda phonics asosida dekodlash-harf-tovush mosligi muntazam berilgan, matn-rasm-audio integratsiyasi mavjud, bu bilan visual tayanch anglashni yengillashtiradi, qisqa va sodda matnlar berilgan, kichik dialoglar orqali real kommunikatsiya modeli berilgan.[6] 3-sinf ish daftari(Workbook) ni tahlil qilish natijasida har bir bo‘lim(unit) bo‘yicha leksik mustahkamlash, gap tuzish, moslashtirish, to‘ldirish, qisqa matn asosida savollarga javob berish kabi yozma-amaliy topshiriqlar jamlanganini ko‘rish mumkin.[7]

“Guess What!” 3-sinf o‘quvchi kitobining 2-bo‘limi(Unit 2.At school) mavzusiga oid 29-sahifasi o‘qish ko‘nikmasini shakllantirishga mo‘ljallangan sahifalardan biridir. Ushbu sahifa “Reading and speaking” bo‘limi doirasida berilgan bo‘lib, unda maktab mavzusi asosida qisqa matn, rasmi tayanchlar va tushunishni tekshiruvchi topshiriqlar mujassamlashtirilgan. Demak, bu sahifa faqat o‘qish emas, balki o‘qilgan matn asosida gapirish va fikr bildirish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Sahifada o‘quvchining diqqatini matnga tayyorlash uchun kirish savoli berilgan: “What places can you find in your school?”,o‘quvchini shaxsiy tajribasi bilan bog‘liq holda mavzuga olib kiradi. Bu yondashuv o‘qishdan oldingi faollashtirish bosqichini kuchaytiradi, chunki bolalar o‘z maktabidagi joylarni eslab, keyingi matnni tushunishga tayyorlanadi, chunki u o‘quvchining mavjud bilimlarini yangi axborot bilan bog‘lashga yordam beradi. Matn birinchi shaxs shaklida berilgan qisqa tavsiflardan iborat bo‘lib, Lisaning maktabi, maydonchasi, sinfi, kutubxonasi va sevimli xonasi haqida hikoya qiladi. Har bir gap sodda leksika va qisqa sintaktik tuzilmalardan tashkil topgan, bu 3-sinf o‘quvchisi uchun o‘qish yukini kamaytiradi. Matnda “big/small”, “playground”, “classroom”, “library”, “favorite room” kabi tez o‘zlashtiriladigan so‘zlar ishlatilgan bo‘lib, ular maktab mavzusi doirasida faol lug‘atni kengaytiradi. Matn o‘quvchidan asosan faktni topish, matnni umumiy tushunish va oddiy bog‘lanishlarni aniqlashni talab qiladi. Masalan, savollar “Is Lisa’s school big or small?”, “What is Lisa’s favourite sport?”, “What are the children in the classroom doing?”, “Does Lisa like reading?” kabi aniq javobga ega bo‘lgan tushunishni tekshiradi. Sahifadagi 13-topshiriqda o‘quvchidan matnni qayta o‘qib, savollarga javob berish so‘raladi. Bu topshiriq o‘qilgan axborotni qayta tiklash va asosiy g‘oyani ajratish ko‘nikmasini mustahkamlaydi. 14-topshiriqda esa “Our school is small / False. It’s big” kabi jumlar orqali “true or false” formatida baholash amalga oshiriladi. Bunday shakl o‘quvchini matndagi konkret dalilga tayangan holda tekshirishga o‘rgatadi, bu esa matnni yuzaki emas, dalil asosida o‘qishga yo‘naltiradi. Ushbu sahifani tahlil qilish natijasida shuni ko‘rish mumkinki, undagi matn va topshiriqlar integratsiyalashgan yondashuvga ega: o‘qish bilan birga gapirish amaliyoti ham birlashtirilgan. Rasmi materiallar matn mazmunini vizual qo‘llab-quvvatlab, so‘zlarni kontekstda tushunishni osonlashtiradi. Bu esa ayniqsa 3-sinf o‘quvchilarida motivatsiya, vizual tayanch va nutqiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

“Guess What!” darsligining 4-sinfga mo‘ljallangan o‘quvchi kitobi (Student’s book) 3-sinf darsligining davomi hisoblanib, mavzular va grammatik strukturalar ham biroz

murakkablashadi. Darslik 8 ta bo‘lim (Unit) dan iborat bo‘lib, shahar, kasblar, tabiat va ob-havo kabi mavzularni qamrab oladi. Bundan tashqari CLIL orqali geografiya, tabiiy fan va boshqa fanlar bilan integratsiyasi mavjud.

Darslikda quyidagi topshiriq turlari mavjud: o‘qish oldi (Pre-reading)-rasm asosida taxmin qilish, so‘zlarni moslashtirish, savollarga javob berish; o‘qish jarayonida (While-reading)-to‘g‘ri/noto‘g‘ri (True/False), variantni tanlash, moslashtirish, gaplarni to‘ldirish, savollarga qisqa javob berish; o‘qishdan keying(Post-reading)-matnni qayta hikoya qilish, juftlikda savol-javob qilish, shaxsiy fikr bildirish, loyihaviy topshiriq. Shuni alohida ta’kidlash kerakki topshiriqlar kognitiv murakkablik bosqichlari ya’ni tanib olish-tushunish-qo‘llash asosida tuzilgan[8]. O‘quvchi kitobida o‘qish ko‘nikmasi quyidagi mexanizm asosida shakllantiriladi, matndan oldin asosiy so‘zlar berilib leksik tayanch yaratiladi, rasm, diagramma kabi vizual tayanchlar yordamida kontekst yaratiladi, avval umumiy keyin batafsil tushunish orqali bosqichli anglash jarayoni yuzaga keladi, o‘qilgan matn asosida gapirish va yozish topshiriqlari berilib integratsiyaga erishiladi. 4-sinf ish daftar(Workbook)ni tahlil qilish natijasida ish daftari o‘quvchi kitobida berilgan ma’lumotlarni mustahkamlash uchun qulay bo‘lib, individual ishlashga yo‘naltirilgan, leksika va grammatikani mustahkamlaydi, unda yozma faoliyat ustun bo‘lib, ish daftaridagi topshiriqlar ko‘proq reproduktiv harakterga ega ekanligi aniqlandi.[9]

4-sinf o‘quvchi kitobining 4-bo‘limi(Unit 4.Wild animals) mavzusiga oid “Reading and Speaking” bo‘limi o‘qish ko‘nikmasini shakllantirishda matnni mazmuniy idrok etish, asosiy axborotni ajratish va uni og‘zaki nutqda qo‘llashga yo‘naltirilgan. Ushbu sahifada hayvonot olamiga oid mavzu tanlangan bo‘lib, u o‘quvchilar uchun qiziqarli va yosh xususiyatlariga mos “Would you like to work in a zoo?” mavzusidagi matn berilgan, unda turli hayvonlar haqida qisqa, mazmunan boy va bolalar uchun tushunarli axborotlar taqdim etiladi. Matnning leksik tarkibi sodda, gap tuzilishi esa ixcham bo‘lgani sababli o‘quvchi asosiy ma’lumotni tez ajratib oladi. 13-topshiriqdagi savollar matndan aniq faktlarni topishga qaratilgan bo‘lib, bu o‘qishning boshlang‘ich bosqichiga xos bo‘lgan so‘zma-so‘z tushunishni rivojlantiradi. 14-topshiriq esa o‘quvchini suhbatga jalb etib, o‘qilgan material asosida fikr almashish malakasini rivojlantiradi. Shu bilan birga, “Read again and answer the questions” tipidagi topshiriqlar o‘quvchini matnga qayta murojaat qilishga majbur etadi, bu esa o‘qishning diqqat, aniqlik va xotira bilan bog‘liq jihatlarini mustahkamlaydi. 15-topshiriq “Read and listen” da berilgan matn mazmuni dialog va vaziyatlar orqali davom ettiriladi. Bu holat o‘quvchining ketma-ketlikni anglash, personajlar fikrini farqlash va matn mazmunini kontekstda tushunish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Rasm va matn o‘rtasidagi moslik o‘quvchiga leksik birliklarni vizual tasavvur bilan bog‘lash imkonini beradi, bu esa tushunishni yengillashtiradi. Bundan tashqari bu topshiriq tinglab tushunish bilan bevosita bog‘langan, chunki bu yerda matn faqat o‘qish uchun emas, balki eshitib idrok etish orqali ham o‘zlashtiriladigan kommunikativ vaziyatda berilgan. Ya’ni o‘quvchi dialogdagi mazmunni tinglab, personajlar orasidagi munosabatni, savol-javob ketma-

ketligini va asosiy axborotni angelaydi, soʻng uni oʻqish faoliyati bilan uygʻunlashtiradi. Bu yerda tinglab tushunishning ahamiyati shundaki, oʻquvchi avval eshitilgan gaplarni matn va rasmlar bilan solishtiradi. Natijada u tovush shakli, maʼno va vizual kontekst oʻrtasidagi bogʻlanishni angelaydi. Bu esa boshlangʻich sinfda eshitish orqali tushunish, soʻzlarni farqlash va mazmuni taxmin qilish koʻnikmalarini rivojlantiradi. Bu topshiriq tinglab tushunish va oʻqish koʻnikmalarini integratsiyalashgan holda shakllantiradi. Bunday yondashuv oʻquvchining faolligini oshiradi, chunki u faqat matnni oʻqib qolmay, eshitilgan maʼlumotni ham qayta ishlaydi va mazmuni chuqurroq angelaydi.

Xulosa. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, “Guess What!” darslik majmuasi 3–4-sinf oʻquvchilarining ingliz tilida oʻqish kompetensiyasini shakllantirishda muhim didaktik imkoniyatlarga ega. Darslikdagi matnlar yoshga mos, mazmunan qiziqarli va kommunikativ yoʻnalishga ega boʻlib, oʻquvchilarda oʻqishga qiziqish uygʻotadi. Ayniqsa, rasm, dialog, savol-javob va tinglab-oʻqish kabi topshiriqlar oʻqish jarayonini faollashtirib, leksik-grammatik bilimlarni amaliy nutq bilan bogʻlashga xizmat qiladi. 4-sinf darsligi umumiy oʻqish kompetensiyasini shakllantirish, mazmuni kontekstda anglash va til birliklarini integratsiyalash nuqtayi nazaridan ijobiy baholanadi. Shu bilan birga, tahlil jarayonida ayrim metodik kamchiliklar ham aniqlandi. Jumladan, 3-sinf darsligida oʻqish strategiyalari, xususan, skimming va scanning kabi tushunchalar tizimli ravishda nomlanmagan hamda bosqichma-bosqich shakllantirilmagan. Differensial topshiriqlar yetarli emasligi sababli kuchli va sust oʻquvchilar uchun alohida faoliyat bloklari koʻzga tashlanmaydi. Shuningdek, diagnostik baholash mexanizmlari ishlab chiqilmagan: oʻqish tezligi, anglash darajasi va tahliliy oʻqish koʻrsatkichlari aniq mezon sifatida berilmagan. Tanqidiy oʻqish elementlari ham cheklangan boʻlib, savollar asosan faktologik xarakterga ega. 4-sinf darsligi mazmunan boy boʻlsa-da, unda analitik oʻqish strategiyalari, tezlikni rivojlantirishga doir topshiriqlar, differensial yondashuv va milliy-madaniy komponentning mahalliy kontekst bilan bogʻlanishi yetarli darajada ifodalanmagan. Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish uchun darslik va metodik qoʻllanmalarga oʻqish strategiyalarini alohida bosqichlar asosida kiritish, skimming va scanning kabi koʻnikmalarni maqsadli shakllantiruvchi topshiriqlarni koʻpaytirish lozim. Shuningdek, differensiallashtirilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish, yaʼni kuchli va sust oʻquvchilar uchun turli darajadagi topshiriqlar berish maqsadga muvofiqdir. Oʻqish kompetensiyasini aniq baholash uchun diagnostik mezonlar — oʻqish tezligi, tushunish darajasi, matnni tahlil qilish va xulosa chiqarish koʻrsatkichlari — ishlab chiqilishi kerak. Bundan tashqari, savollar tizimiga tanqidiy va ijodiy yondashuvni kuchaytiruvchi topshiriqlar, mavzularga esa oʻquvchining hayotiy tajribasi va milliy madaniy muhitiga yaqin boʻlgan mahalliy kontekst elementlari kiritilishi lozim.

Umumiy xulosa sifatida, “Guess What!” darslik majmuasi boshlangʻich sinf oʻquvchilarida ingliz tilida oʻqish kompetensiyasini shakllantirishda samarali resurs hisoblanadi. Biroq uning metodik imkoniyatlarini yanada toʻliq roʻyobga chiqarish uchun

o‘qish strategiyalari, differensial yondashuv, diagnostik baholash va tanqidiy o‘qish elementlarini kuchaytirish zarur deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. *Umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi: Chet tillari (ingliz, nemis, fransuz) 1–11-sinflar uchun*. Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 5 b.
2. Бим И.Л. Обучение иностранным языкам: поиск новых путей // Иностранные языки в школе. - 2003.- № 1.С. 89
3. Ilieva L.K. Chet til ta’limida izchillikni ta’minlashning lingvodidaktik asoslari: Diss. ... ped. fanlar nomzodi. – T., 2007. – 150 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Cambridge University Press hamkorligida xorijiy til darsliklarini joriy etish bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar // IDUM. – Toshkent, 2023.
5. Abdullayeva M. 1-2-sinf o‘quvchilarining ingliz tilida leksik kompetentsiyasini rivojlantirishda “Guess What!” darsligining imkoniyatlari // Foreign Linguistics and Linguodidactics.-2024. – №2. – B. 37–45.
6. <https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>
7. Reed S., Bentley K. *Guess What! 3 Student’s Book*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – 108 p.
8. Reed S., Bentley K. *Guess What! 3 Workbook*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – 96 p.
9. Reed S., Bentley K. *Guess What! 4 Student’s Book*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – 108 p.
10. Reed S., Bentley K. *Guess What! 4 Workbook*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – 96 p.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934